INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QO‘SHMA SO‘ZLARNING MILLIY-MADANIY O‘ZIGA XOSLIGI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

Abduraximova Feruza Boxadirovna
(PhD), dotsent, FDU doktoranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘shma so‘zlarning milliy-madaniy o‘ziga xosligi qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Qo‘shma so‘zlarning ta'rifi, so‘z yasalishidagi o‘rni, R.A.Quirk, O.Espersen, A.Hojiyev, B.Madaliyev va boshqa tilshunoslarning qarashlari asosida ikki tildagi yasalish modellari solishtiriladi. Har bir millatning mentaliteti, madaniyati va turmush tarzi qo‘shma so‘zlarda o‘ziga xos aks etishi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *qo‘shma so‘z, kompozitsiya, so‘z yasalish, milliy-madaniy o‘ziga xoslik, qiyosiy-tipologik tahlil, leksema, ingliz tili, o‘zbek tili, leksikologiya***,**

KIRISH

Qo‘shma so‘zlarning o‘ziga xos milliyligi haqida gapirganda, avvalo, qo‘shma so‘zlarning “o‘ziga xos”ligini aniqlash lozim. Umumiy qilib aytganda, so‘zning o‘ziga xosligi bir predmetni boshqa predmetlardan biror xususiyati haqida gap borganda, biz bu til haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lgan taqdirda, boshqa dunyo tillaridan o‘z xususiyatlari bilan o‘zaro farqli jihatlari haqida hukm chiqarsak bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, har bir til lingvistik jihatdan boshqa tillarga nisbatan “o‘ziga xosdir” deyish mumkin bo‘ladi [7;204].

Qo‘shma so‘zlar so‘z yasalishida qadimgi va hozirgi paytgacha unumli usullardan biri hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq negizni bir-biriga qo‘shish orqali yasaladi. Qo‘shma so‘zlar o‘zining gap tarkibida alohida leksik birlik bo‘lib kelishi bilan ajralib turadi [1;108]. Professor A.Zapata bu usulni qo‘shish, ya’ni “compounding” deb nomlaydi. Bunday usulda so‘zlar ikki yoki undan ortiq mustaqil o‘zak va asoslarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. O.Espersen ingliz tilida qo‘shma so‘zlarni quyidagicha ta’riflaydi: “Qo‘shma so‘z bir butun til birligi sifatida ajralib turadigan va yaxlit birlik sifatida qo‘llaniladigan so‘zlardir” [5;134].

Blackboard (doska- qora +taxta)
Inkpot (siyohdon -siyoh + idish)
Textbook (darslik – matn + kitob)
Newspaper (gazeta- yangilik + qog‘oz)
Snowdrop (boychechak- qor + tomchi)
Brother-in-law(qaynog‘a)

Bunda so‘zlar mustaqil o‘zaklardan tashkil topgan. Bunday usulda yangi leksemalarni yasash dunyo tillarida eng samarali usul hisoblanadi, ayniqsa, sintetik tillarda. Leksema yasalishining bunday usuli ingliz tilida ko‘proq ot va fe’llarni, ba’zan sifat, ravish, olmoshlar, kam miqdorda sonlarni hosil qilishda ishlatiladi [1;107].

Tilshunos R.A.Quirk “A grammar of contemporary English” nomli asarida qo‘shma so‘zlarga “ikki yoki undan ortiq negizdan tashkil topgan til birligi” deb ta’rif beradi va ular, odatda, ot, sifat va fe’l shaklida bo‘lishi mumkin. Ammo, I.V.Arnold,

V.Adams, T.M.Noviskaya va bir qator tilshunoslarning fikricha, ingliz tilida so‘z yasash nafaqat ot, sifat va fe’l doirasida, balki boshqa so‘z turkumlari qamrovida ham bo‘lishi mumkin.

M: *Underground- yerosti*
Outdoors- ochiq havoda
Upstairs- yuqori qavat
Everybody- hamma
Somewhere- qayerdadir
However- biroq, ammo

Transformatsion grammatika sohasida ish olib borgan R.Lizning fikricha, qo‘shma so‘zlar gapda aks etgan axborotni to‘lig‘icha ifoda eta oladi. Masalan, *Taxpayer – someone who pays tax. (Soliq to‘laydigan odam – Soliq to‘lovchi) Housekeeper – he keeps a house. (Uyni saranjom saqlovchi – Uy bekasi.)*

I.Plagning fikricha, qo‘shma so‘zlar ikki yoki undan ortiq so‘zning qo‘shilmasidan tashkil topadi. Bunda qo‘shma so‘z tarkibidagi so‘zlar beshtagacha, hatto undan ham ko‘p bo‘lishi mumkin [8;170].

M. *communication technology equipment, university teaching award comettee member*.

O.D.Meshkovning ta’rifi ham shunga o‘xshashdir, “So‘z yasalishida qo‘shma so‘z ikki yoki undan ortiq negizning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi va u nutqda bo‘linmaydigan shaklda bo‘ladi” [7;69].

A.Hojiyev fikriga ko‘ra, qo‘shma so‘zlar mustaqil ma’no ifodalaydigan, birdan ortiq komponentdan tashkil topgan so‘z nazarda tutiladi. Ammo qo‘shma so‘zlarni tashkil etuvchi komponetlari har doim ham morfemaga teng bo‘lavermaydi. Bu komponentlar yasama so‘z (leksema)ga, hatto so‘z formasiga teng bo‘lishi mumkin [4;30]. Rus tilshunosi L.S.Barxudarov esa, “Agar yasama so‘zda bir morfemasi tanish va tushunarli bo‘lsa, ikkinchisi esa siz uchun yangi va notanish bo‘lsa, uning negiz, o‘zak yoki asosligi ham noma’lum bo‘lsa, uni morfema deb atash xato bo‘lmaydi”, – degan [2;180]. Demak, qo‘shma so‘zlarning tarkibi morfemalardan tashkil topadi.

Tinchliksevar (tinch-lik+sev-ar)
Betgachopar (bet-ga-chop-ar)
Ustabuzarmon (usta-buz-ar-mon)

Kompozitsiya usuli lingvistik adabiyotlarda o‘zak qo‘shish (o‘zak-negiz qo‘shish), so‘z qo‘shish, asos qo‘shish bilan ta’riflanadi. Bunday ta’rif maqbul deb hisoblanmaydi. Chunki o‘zak qo‘shish termini qo‘shma so‘zlarning yasash hodisasining mohiyatiga to‘la mos kelmaydi. Qo‘shma so‘zlarning komponentlari doim o‘zakka teng bo‘lavermaydi.

So‘z qo‘shish termini qo‘shma so‘zlarning yasalish hodisasi uchun to‘g‘ri kelmaydi. So‘z o‘zak yoki leksema deb yuritiladi, ya’ni leksemaning aniq shakli tushuniladi. Bu birliklarning qo‘shiluvidan leksik birlik emas, sintaktik birlik – so‘z birikmasi hosil bo‘ladi. Kompozitsiya usulida yasalgan so‘zlar tarkibida shakl yasovchi morfema bo‘lsa ham, u o‘z vazifasini bajarmaydi. U komponent qo‘shma so‘z tarkibidagi so‘z emas, balki so‘zning komponenti hisoblanadi.

Asos qo‘shish termini bu hodisa uchun mosga o‘xshaydi. “So‘z yasalish asosi”, “yasovchi asos” deganda, yasama so‘zning motivlovchi komponenti hisoblanadi. Qo‘shma so‘zlarda motivlovchi asos bittadan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Qo‘shma so‘z yasalishi mohiyatidan kelib chiqib, mustaqil leksik ma’no ifodalaydigan birliklar qo‘shilishidan hosil bo‘ladi [4;33].

B.Madaliyev qo‘shma so‘zlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Ikki yoki undan ortiq so‘z (o‘zak) larning birikuvidan tuzilib, yaxlit bir tushuncha – ma’noni ifodalovchi so‘zlar qo‘shma so‘z sanaladi” [6;6-7].

Shu ta’rifga muvofiq, qo‘shma so‘zlarning hammasida o‘zakning birdan ortiq bo‘lishi shartligi ko‘rsatiladi [3;12].

Ingliz tiliga yunon tilidan kirib kelgan so‘zlar ham yangi so‘zlarning shakllanishida ishtirok etadi. Masalan, “thermos” (issiq) va “metron” (tekshirmoq) so‘zlari birlashib, yangi “thermometer” (termometr) so‘zini hosil qiladi.

Ingliz tilida “Acros” (eng yuqori) va “phobia” (qo‘rquv) so‘zlari birikmasidan yangi “acrophobia” so‘zi (balandlikdan qo‘rqish) yuzaga kelgan.

“Triskaidekophobia” so‘zi o‘n uch raqamidan qo‘rqishni tushuntirish uchun ishlatiladi, oyning o‘n uchinchi kuni yoki juma kuni tashqariga chiqmaslikni anglatadi. Bizda, ya’ni Sharq davlatlarida aholining ba’zi bir qatlamlari doirasida o‘n uch raqami ko‘ngilsizlik keltiruvchi raqam deb qaralsa, islom qatlamiga oid insonlar uchun bu son alohida ahamiyat kasb etmaydi.

Kompozitsiya jarayoni so‘zlarni qo‘shish orqali yangi bir ma’nolik va talaffuz etilganda ham bir birlik sifatida qo‘llaniluvchi so‘z yasash usuli tushuniladi [9;4].

So‘zlarni bir-biri bilan taqqoslaganda, quyidagi holat o‘ziga jalb qilishi mumkin:

1. Bir tilda so‘z bir o‘zakli so‘z bilan ifodalansa, xuddi shu ma’noli so‘z boshqa tilda qo‘shma so‘z bilan ifodalanishi mumkin.

2. Bir tilda ma’lum bir so‘z turg‘un ma’noga ega bo‘lib, maxsus nominativ birliklar bilan ifodalangan qo‘shma so‘z bo‘lgan taqdirda, xuddi shu ma’noli so‘z boshqa tilda o‘zining turg‘un ma’nosiga ega bo‘lmagan so‘z birikmasi bo‘lishi mumkin.

3. Agar bir tushuncha turli tillarda qo‘shma so‘zlar bilan ifodalansa, unda leksemalar har xil so‘zlar bilan ifodalanadi va uning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi [7;204].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, so‘zlarning yasalish xususiyatlarining tahlili ularning nominativ kategoriyasini belgilashda millatning madaniyati va milliy tamoyillarining o‘ziga xosligini, turmush tarzini inobatga olgan holda amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi. Har bir millatning ongi, tafakkur doirasi va milliy qadriyatlari ifodasini so‘zlar orqali ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, bu xususiyat qo‘shma so‘zlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.:Высшая школа.,1986. – 108 с.

2. Бархударов Л.С.Язык и перевод. – М.: Международные отношения, -1975. –240 с.

3. Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент:1963. – 144 б.

4. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. –170 б.
5. Jespersen O. Modern English Grammar on Historical Principles. Part VI: Morphology. – Copenhagen: Munksgaard, 1942. – 570 p.
6. Мадалиев Б. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма сўзлар. – Тошкент:Фан, 1965. – 183 б.
7. Мешков О.Д. Словообразование современного английского языка. – М.: Наука.1976. – 278 с.
8. Plag I. Word-Formation in English. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 256 p.
9. Wisniewski K. Word Formation. – Tlumaczenia Angielski, 2007. – 125 p.